

**UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABLARI AKADEMIK, LITSEY
HAMDA KASB HUNAR KOLLEJI O`QUVCHILARI UCHUN
YARATILGAN DARSlikLARGA QO`YILGAN
TALABLAR VA MUAMMOLAR**

A.G`ofurov,
TDPU professori

Pedagogika va xususiy metodika fanlari tizimida darslik masalasi asosiy mavzulardan biri sanaladi. Shu sababli, oliy o`quv yurtlari uchun nashr qilingan pedagogika, xususiy metodika darsliklarida, o`quv qo`llanmalarda umumiy o`rta ta`lim va o`rta maxsus kasb-hunar ta`lim muassasalari uchun yozilajak darsliklarga alohida o`rin berilgan. Bu, albatta, tushunarli. Axir, maktab, litsey, kollej o`quvchilari darslik tufayli bilim oladilar. Ayni, vaqtda darslik o`qituvchilarning bilim berish vositasi hisoblanadi. O`quvchi nimani o`rganishi, o`qituvchi nimani o`rgatishi, pirovard, darslikka borib taqaladi. Modomiki shunday ekan, darslikning tuzilishi, mazmuni uning metodik apparati qanday bo`lishi kerak, degan muammo pedagoglar, psixologlar, metodistlarni doimo qiziqtirib kelgan.

Birinchidan, darsliklar “Ta`lim to`g`risida”gi qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablaridan kelib chiqqan holda tayyorlanishi kerak.

Xususan, darsliklar ta`lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy printsiplari bo`lmish: ta`lim bilan tarbiyaning insonparvarligi, demokratik xarakterda ekanligi, ta`limning uzluksizligi va uzviyligi, ta`lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi to`g`risidagi printsiplariga asoslangan bo`lishi lozim.

Ikkinchidan, darsliklar, shu jumladan, umumiy o`rta ta`lim maktablarining biologiya darsliklari BIZbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 13 maydagi 203-sonli qarori bilan tasdiqlangan biologiya ta`lim standartiga mos holda yozilgan bo`lishi lozim. Mazkur ta`lim standartida biologiya ta`limining maqsadi va vazifalari, ta`lim mazmunining majburiy minimumi, bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo`yiladigan minimal talablar uch: 1. Organizm-biologik sistema; 2. Ekologik sistema; 3. Organik olam evolyutsiyasi yo`nalishida berilgan.

Uchinchi dan, o`quv qo`llanmalaridan farqli ravishda barcha darsliklar Xalq ta`limi hamda Oliy, o`rta maxsus ta`lim vazirliklari tomonidan tasdiqlangan o`quv dasturlari asosida yoziladi.

Akademik litsey, kasb-hunar kollejlarning yozilgan biologiya darsliklari BIZBekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 16 oktyabrdagi 400-sonli qarori bilan hamda oliy o`rta maxsus ta`lim vazirligi hay`atining 2001 yil 3 avgust 7/3- sonli qarori bilan tasdiqlangan ta`lim standarti asosida yozilgan. Ta`limning standartlashtirish maqsadi va vazifalari, ta`lim mazmunining zarur va yetarli hajmi ko`rsatilgan. Biologiya (tsitologiya va genetika asoslari) o`quv dasturida o`quv predmet mazmuni, ularni o`qitish uchun ajratilgan soatlar, zarur jihozlar dars turlari ko`rsatilgan.

**To`rtinchi dan,** maktab biologiya darsliklari Xalq ta`limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan biologiya o`quv dasturi asosida tayyorlangan bo`lishi kerak. Mazkur o`quv dasturida uqtirish xati, biologiyani o`qitishga oid metodik tavsiyalar, maktab biologiya o`quv fanining bo`limlari botanika, zoologiya, odam va uning salomatligi xamda biologiya (tsitologiya va genetika asoslari) o`quv predmetlarining asosiy mavzulari, ularni o`qitish uchun ajratilgan soatlar, zarur jihozlar berilgan.

Beshinchi dan, o`quv dasturi unga asoslangan darslik - biologiya fanining so`ngi yutuqlarini o`zida aks ettirishi lozim. Bu haqda to`xtab shuni ta`kidlash kerakki, XX asrning 70-80- yillariga kelib, biologiya fanida hayotning molekula, hujayra, organizm, populyatsiya – tur, biotsenoz, biogeotsenoz, biosfera darajalari, mavjud degan tushuncha barcha biolog olimlar tomonidan e`tirof etilgan. Hayot tuzilishini qayd etilgan darajalari, tabiiyki, “Umumiy biologiya” darsligida o`z ifodasini topmog`i kerak.

Shuni inobatga olgan holda «Umumiy biologiya» o`quv fanining o`quv dasturini tuzishda hamda «Umumiy biologiya» darsligini yozishda yirik mavzularni tubandagi izchillikda yoritdik. 1. Tsitologiya asoslari; 2. Hayotiy jarayonlarning kimyoviy asoslari; 3. Organizmlarning ko`payishi va individual rivojlanishi; 4. Genetika selektsiya asoslari; 5. Molekulyar genetika va

biotexnologiya; 6. Evolyutsion ta'limot; 7. Evolyutsiyani isbotlovchi fan dalillari; 8. Yerda hayotning paydo bo'lishi va rivojlanishi; 9. Odamning paydo bo'lishi; 10. Ekologiya asoslari; 11. Biosfera va uning evolyutsiyasi.

Asosiy mavzularni bunday izchillikda berilishi, birinchidan, hayot tuzilishining turli darajalarini o'quvchilar ongida shakllanishiga ko'maklashsa, ikkinchidan, oldin o'zlashtirilgan bilimlar asosida, yangi bilimlarni takomillashtirish lozim degan qoidani maktab amaliyotiga tadbiq etib, uchinchidan esa, umumiy biologiya fanidan o'quvchilarning bilimlarni puxta o'zlashtirishiga yordam beradi.

Oltinchidan, ta'lim bilan birgalikda, tarbiyani o'quvchilar ongiga singdirish lozim. Ma'lumki, mustabid davrda nashr qilingan biologiya darsliklarida Rossiya va chet el tabiatshunos olimlarining biologiya faniga qo'shgan hissalar atroflicha bayon etilsada, biroq qardosh respublika xududlarida ilgari yashab jahon fani va madaniyatiga katta ulush qo'shgan buyuk olimlar, shuningdek, o'sha vaqtda fanlar akademiyasi, nufuzli oliy o'quv yurtlarida faoliyat yuritib, biologiya fani rivojiga o'z xissalarini qo'shayotgan olimlar haqida xech qanday ma'lumot berilmas edi.

Yurtboshimiz Islom Karimov Respublika Oliy Majlisi IX sessiyasida so'zlagan nutqida: "Eski qolipda, mustabid davrda yozilgan darsliklardan foydalanib, eski mafkuradan xolos bo'lmasdan, bolalarimizni yangicha fikrlashga o'rgatolmaymiz", deb qayd qilgan edi.

Yurtboshimizning ko'rsatmalarini hayotga tatbiq etib, maktab hamda akademik litsey, kasb-hunar kolleji o'quvchilari uchun yozilgan botanika, zoologiya, odam va uning salomatligi, biologiya darsliklariga imkon boricha, o'tmishda jahon tabiyotshunoslik faniga ulkan hissa qo'shgan buyuk mutafakkirlar: Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy ilmiy merosini hamda hozirgi vaqtda Respublika Fanlar Akademiyasining botanika, zoologiya, o'simliklar eksperimental biologiyasi, genetika, bioximiya, fiziologiya, selektsiya va urug'chilik institutlari, shuningdek, nufuzli oliy o'quv yurtlarining biologiya, tabiatshunoslik fakultetlarida ijodiy ishlar bilan mashg'ul bo'lgan taniqli olimlarning faoliyat natijalari darsliklarga kiritildi. Shu bilan bir qatorda,

Ўзбекистон tabiati, o'simliklar va hayvonot dunyosining turli-tumanligi, ular hayotining o'ziga xos xususiyatlariga oid ma'lumotlar darsliklarga kiritilgan. Ularga qushimcha qilib g'oz, meva, sabzavot poliz ekinlarining yangi navlari hamda ot, qoramol, qo'y, tovuq, g'oz, o'rdaklarning yangi zotlari haqidagi ma'lumotlar darsliklardan o'rin olganligini xam qayd etish lozim.

Biz va dotsent S.S.Fayzullaev tomonidan olib borilgan pedagogik tajribalarga asoslanib, darslikda uy vazifasini mavzu o'tib bo'lgandan keyin emas, balki undan oldin berish kerak degan xulosaga keldik. Darslikda yangi mavzuni o'tishdan oldin o'quvchilar o'tilajak dars mavzusini uyda o'qib kelish, mavzuga aloqador rasmlarni sinchiklab o'rganish, berilgan savollarga javob topish, testlardan to'g'ri javobni aniqlash, diagramma, jadvallarni to'ldirish, atamalar va ularning lug'aviy ma'nosini bilish, ayrim masalalar bo'yicha o'z fikrini asoslash, bahs yuritish kabi topshiriqlar berilgan.

Pedagogik tajribaning ko'rsatishicha dastlabki vaqtda kollej, litsey o'quvchilarida bunday vazifa bajarish birmuncha qiyinchilik keltirib chiqarsa-da, asta-sekin ular mustaqil bilim olish, mustaqil fikr yuritish ko'nikmasiga ega bo'la boshlaydilar. Darslikdan mustaqil bilim olish, umuman, mustaqil fikr yuritishi o'qituvchining pedagogik mahoratiga hamda uning, talabchanligiga bog'liq.

Biologiya darsliklariga qo'yiladigan yana **bir talab**, matnlarning ilmiyligini saqlagan holda uning tushunarli bo'lishidir. Shunga ko'ra, biologiya darsliklaridagi mavzularning tushunarli bo'lishida, matndan tashqari, uning mazmunini ochib berishga qaratilgan turli rangli rasmlar, jadvallar, sxemalar, diagrammalarga katta ahamiyat berilgan. Fan asoslarini o'rganishga bo'lgan o'quvchilarning qiziqishini rivojlantirish maqsadida, botanika, zoologiya darsliklariga turli boshqotirma-krossvord, test topshiriqlar, qo'shimcha o'quv materiallar kiritilgan.

Darslikni yozish, nashr ettirish bilan bog'liq ko'pgina ijobiy natijalar bilan birga, xali yechimini kutayotgan muammolar ham mavjud. Ayrim biologiya darsliklarida laboratoriya mashg'ulotlarini qanday o'tkazilishi xususida yetarlicha ko'rsatma yoritilmagan. Ba'zi darsliklarda esa, matn paragraflarga ajratib

berilmagan. Bu, ayniqsa, yosh o`qituvchilar uchun xar soatda o`tilishi lozim bo`lgan mavzularni rejalashtirishda qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi tabiiy.

Keyingi vaqtlarda kompyuter texnologiyasiga asoslangan elektron darsliklar, o`quv adabiyotlar borasida ko`p gapirilmoqda. qayd etilgan darsliklar, o`quv adabiyotlar an'anaviy darsliklardan tubdan farq qiladi. Ularni yaratishga bo`lgan talablar an'anaviy darsliklarga qo`yilgan talablardan o`zgacha bo`lgani sababli, ularga to`xtamadik. Negaki, elektron darsliklar, o`quv adabiyotlarning xillari, ularning o`ziga xos jihatlari, tayyorlash bosqichlari qisman bo`lsada adabiyotlarda yoritilgan.